

**Ashurova Go'zalxon Komil qizi  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
Boshlang'ich ta'lif yo'naliishi 3-bosqich talabasi**

---

## **BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA O'QITISH JARAYONIDA O'QUVCHILARNI INSONPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarni komil inson qilib tarbiyalash, bilim va tarbiya doim birga bo'lishining sababi, har bir mavzuning tarbiyaviy ahamiyatini anglash, matematika darslarida o'quvchilarni tarbiyalash, yangi avlod matematika darsliklaridagi yondosh mavzular va masalalar orqali o'quvchilarni insonparvarlik ruhida qanday tarbiyalash mumkinligi haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Yangi avlod darsliklari, masala, yondosh mavzu, tarbiya, insonparvarlik, vatanga muhabbat, matematika, tarbiyalash.

---

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Yangi O'zbekistonni qurish jarayonida quyidagi fikrni qayta-qayta takrorlab kelmoqdalar: "Yangi O'zbekistonni O'zbekistonning asosiy ustuni-bilim, ta'lif va tarbiya bo'ladi". Haqiqatdan ham O'zbekistonning kelajagi, yanada yuksalishi, xalqaro maydonlarga chiqishi bilimli, aqli va tarbiyali yoshlarning qo'lida. Agar bolalarni boshlang'ich sinfdanoq vatanga muhabbat va insonparvarlik ruhida tarbiyalasak, albatta, ular O'zbekistonni yuksalishiga o'z hissasini qo'shadigan komil insonlar yetishib chiqadi.

Har doim, hamma joyda bilim va tarbiya birga tilga olinadi. Chunki tarbiyasiz bilim hech qanday natija bermaydi. Bilimi bor, lekin tarbiyasiz insonlarning vatanimiz uchun, hatto o'zi uchun ham hech qanday foydasi tegmaydi. Demak, biz o'quvchilarga boshlang'ich sinfdanoq bilim bilan birga tarbiya ham berib borishimiz kerak.

Bolalarni barkamol inson qilib tarbiyalashda buyuk mutafakkir ajdodlarimizning qimmatli meroslari alohida o'rinn tutadi. Kichik yoshdagi maktab bolalarini tarbiyalashda maktab muhim o'rinn egallasa-da, bolalarga uzlusiz ta'sir o'tkaza olmaydi. Chunki o'quvchilar kunning ma'lum qismidagina maktabda bo'ladilar, kunlarining asosiy qismini uyda ota-onalari bilan o'tkazadilar. Shu sababdan ham ota-onalara tarbiyasiga alohida, jiddiy e'tibor qaratmog'i lozim.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni dars jarayonida tarbiyalab borish kerak. Har bir fanning barcha mavzusida tarbiyaviy ahamiyati bo'ladi. Dastlab buni o'qituvchining o'zi tushunishi va o'quvchilarga tushunarli tarzda yetkazib bera olishi zarurdir. Agar mavzuning tarbiyaviy ahamiyatini o'qituvchining o'zi anglamasa, buni o'quvchilarga ham yetkaza olmaydi. Natijada esa, bilimli lekin tarbiyasiz insonlar yetishib chiqishi mumkin. Buni oldini olish uchun esa o'qituvchi har doim izlanishda bo'lishi, mavzularning mazmun va mohiyatini anglashi zarurdir. Yana bir gapni ta'kidlash zarurki, o'quvchi tarbiya berish uchun avvalo o'qituvchining o'zi tarbiyali, shirin so'z, boshqalarni oldida o'zini yo'qotib qo'yayigan bo'lishi zarur. Chunki o'quvchi, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qituvchisiga o'xshashga harakat qiladi va undan o'rnak oladi. O'qituvchi nutqida yomon so'zlar ishlata turib, o'quvchidan bunday yomon so'zlar aytmaslikni yoki o'zi maktab formasida kelmasdan, o'quvchidan maktab fomasini talab qila olmaydi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qituvchining har bir qilgan ishini va so'zini to'g'ri deb qabul qiladilar, shuning uchun o'qituvchilariga o'xshashga harakat qiladilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uyda ota-onasi aytgan ishni bajarmasligi mumkin, lekin ustozining aytgan har bir gapi ular uchun qonunday bo'ladi. Shuning uchun o'quvchilarni

tarbiyalashni, vatanga muhabbat uyg'otish va ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash uchun, biz ishni birinchi o'rinda o'qituvchilarni tarbiyalashdan boshlamog'imiz darkor.

O'qish darslarida o'quvchilarda vatanga muhabbat, insonparvarlik ruhini uyg'otishda darslikda berilgan ertak, hikoya va she'rlarning mazmun mohiyatini tushuntirishda o'rgatib borish mumkin. Bundan tashqari barcha fanlarni boshlashda dastlab mavzuga mos ibratli, qisqagina hikoya aytib berish maqsadga muvofiqdir.

Matematika o'qitish jarayonida ham o'quvchilarni tarbiyalash, ularga insonparvarlik tuyg'ularini singdirish muhim ahamiyatga ega. Bunda masalalarining o'rni beqiyosdir. Yangi avlod matematika darsliklarida asosiy mavzudan tashqari yondosh mavzu ham keltirib o'tilgan. Bundan quyidagi maqsadlar ko'zda tutilgan:

-o'rgangan bilimlarini hayot bilan bog'lash;

-boshqa fanlar bilan integratsiya;

-o'quvchilarga hayotiy bilimlar berish, ularni tarbiyalash. Shundan kelib chiqib dars boshida o'qituvchi yondosh mavzuga doir qisqa ma'lumot aytib berish jarayonida, o'quvchilarni tarbiyalab borishi mumkin. Yondosh mavzular o'qituvchi mavzuning qay tomoniga alohida yondashib tarbiyaviy ma'lumot berishini ossonlashtirgan. Masalan, 4-sinf 1-qism darsligida quyidagi yondosh mavzular keltirib o'tilgan:

- ✓ O'zbekiston respublikasi;
- ✓ O'zbekiston valyutasi;
- ✓ O'zbekistonda turizm;
- ✓ O'zbek bozori;
- ✓ O'zbekiston hunarmandchiligi;
- ✓ O'zbekiston tarixi va h.k.

Berilgan yondosh mavzular asosida o'quvchilarda O'zbekiston bizning vatanimiz ekanligi, uni asrab-avaylashimiz, tinchligimizni saqlashimiz kerakligi, vatanga muhabbat kabi tuyg'ularni uyg'otish mumkin. O'zbekistonda turizm mavzusida esa vatanimizdagi tarixiy joylar haqida aytib, vatanimizdan g'ururlanishimiz kerakligi, undan tashqari sayohatga borganda jamoat joyida o'zini qanday tutishi kerakligi, odamlar bilan qanday muomala qilish haqida bilimlar berish imkonи mavjud. O'zbek valyutasi mavzusida esa o'quvchilarga iqtisodiy tarbiya berish kerak. Ya'ni pulni qanday sarflash, pul bilan muomala qilish tartib qoidalarini aytib o'tish kerak.

Darsliklarda turli mavzudagi masalalar keltirib o'tilgan. Har bir masala o'quvchiga alohida tarbiya berish imkonini bera oladi. Masalalar pul sarflash, hayvonlar, ko'chatlar va gullar ekish kabi mavzularda bo'lishi mumkin.

Pul bilan bog'liq masalalarda pul bilan muomala qilish, tejab sarflash, do'kon yoki bozorga borganda to'g'ri hisob-kitob qilish haqida ma'lumotlar berilib, bolalarni iqtisodiy tarbiyalash mumkin.

Daraxtlar, hayvonlar, gullar va ko'chatlar ekish kabi tabiatga doir mavzularda esa tabiatga mehr uyg'otish, ko'chatlar ekishning foydali tomonlari, hayvonlarga mehrli bo'lish, ularni ovlamaslik kabi tarbiyaviy ahamiyatga ega ma'lumotlar aytib o'tish kerak.

Quyidagi masalaga qarasak: Azizda 10 ta shirinlik bor edi. Aziz ukasi va do'stiga 3 tadan shirinlik berdi. Azizda qancha shirinlik qoldi?

Bu oddiy masala ko'rinishi mumkin, lekin o'quvchilarni tarbiyalashda juda katta o'rinn tutadi. Hozirgi kunda o'quvchilar do'stidan, hatto ukasi, singlisi, opa va akalaridan ham hamma narsasini qizg'anadi. Bunda o'quvchilarga do'stlik, bir-biriga bo'lgan mehr, o'zini narsasini boshqalarga ham ulasha olish kabi insoniy xususiyatlarni singdirish mumkin. Bunday masalalar o'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash juda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, matematik masalalar hamda darslikdagi mavzular( yondosh mavzular) orqali o'quvchilarda tabiatga muhabbat, vatanni sevish hamda o'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

**Foydalanimgan adabiyotlar:**

- 1.Sh.M.Mirziyoyevning saylovoldi dasturidagi nutqi
2. I.V.Repyova 4-sinf 1- qism darslik. Toshkent-2023